

CLI-FI: ZAMONAVIY ADABIYOTDA IQLIM O'ZGARISHINING BADIY TASVIRI

Alimova Vaziraxon Baxtiyorovna,
*doktorant (PhD), Buxoro davlat texnika universiteti,
O'zbek va xorijiy tillari kafedrası*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18902722>

Anotatsiya. *Ushbu maqolada climate fiction (cli-fi) yo'nalishining shakllanishi, mazmuniy xususiyatlari va zamonaviy adabiyotdagi roli yoritiladi. Cli-fi ekologik muammolar, global isish va post-apokaliptik vaziyatlarni badiiy talqin etuvchi yo'nalish sifatida tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan yaratilgan distopik, satirik va ilmiy-fantastik romanlar orqali inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada Atwood, Robinson, Bacigalupi kabi adiblar asarlari misolida cli-fi ning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati ham ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *cli-fi, climate fiction, iqlim o'zgarishi, ekologik adabiyot, distopiya, post-apokaliptik roman, global isish, Margaret Atwood, Paolo Bacigalupi, ilmiy fantastika*

Аннотация. *В статье рассматривается формирование и особенности направления climate fiction (cli-fi) в современной литературе. Cli-fi анализируется как художественная тенденция, отображающая экологические проблемы, глобальное потепление и постапокалиптические сценарии. На примере произведений Atwood, Robinson, Bacigalupi и других авторов показано, как cli-fi соединяет элементы научной фантастики, дистопии, реализма и сатиры. Особое внимание уделено роли cli-fi в формировании экологического сознания и осмыслении отношения между человеком и природой.*

Ключевые слова: *cli-fi, climate fiction, изменение климата, экологическая литература, дистопия, постапокалиптический роман, глобальное потепление, Маргарет Этвуд, Паоло Бачигалупи, научная фантастика*

Annotation: *This article discusses the development and characteristics of climate fiction (cli-fi) as a significant trend in contemporary literature. Cli-fi is examined as a narrative mode that explores ecological crises, global warming, and post-apocalyptic futures through artistic imagination. By analyzing works by authors such as Atwood, Robinson, and Bacigalupi, the paper highlights how cli-fi blends elements of science fiction, dystopia, realism, and satire. The article emphasizes the genre's role in promoting ecological awareness and rethinking the complex relationship between humans and the natural environment.*

Keywords: *cli-fi, climate fiction, climate change, ecological literature, dystopia, post-apocalyptic novel, global warming, Margaret Atwood, Paolo Bacigalupi, science fiction*

Adabiyot — bu inson hissiyotlari, fikrlari, tajribasi va dunyoqarashini so'z va badiiy vositalar orqali ifodalash san'atidir. U jamiyatning ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy hayotini aks ettiradi, kishilarning aqliy va hissiy o'sishiga ta'sir qiladi.

Zamonaviy adabiyotda roman eng yetakchi shakl bo'lib, u murakkab global muammolarni, jumladan iqlim o'zgarishini ifoda etish uchun eng mos shakldir. Tarixiy, ijtimoiy yoki global muammolarni badiiy shaklda namoyish etish roman janrining asosiy vazifalaridan biri. Shu bois climate fiction (yoki qisqacha cli-fi) fenomenini ham aynan romanlar orqali keng rivojlandi. Dunyoviy muammolardan biri

ekosistemadagi o'zgarishlar sanaladi. Asosiy etiborni ekologik muammolar va iqlim o'zgarishiga qaratgan, zamonaviy adabiyotning nisbatan yangi yo'nalishi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi tabiat bilan bog'liq bo'gan muammolarni yoritish: kitobxonga global isish, suv va oziq-ovqat tanqisligi, qishloq va shahar hududlaridagi ekologik xavflarni tushuntirish. Inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni insonning kundalik harakatlari tabiatga qanday ta'sir ko'rsatishini badiiy tarzda namoyish etadi. Shu orqali o'quvchiga ekologik mas'uliyat, kelajak avlodlarga nisbatan mas'uliyat hissini beradi. Bunda odatda ilmiy tushunchalar va ekologik ma'lumotlar badiiy hikoya orqali kitobxonga yetkaziladi.

Biroq, cli-fi ni qat'iy janr sifatida belgilash to'g'ri emas, chunki adabiyot doim o'zgaradi, janrlar esa o'zaro aralashadi va ko'plab romanlar bir nechta janr chegaralarini buzadi. Shuning uchun iqlim o'zgarishi — aniq bir janr emas, balki ko'plab janrlarda uchraydigan mavzudir.

20-asr oxirlari va 21-asrning boshlarida texnologik rivojlanish bilan birga iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar jiddiy global mavzu sifatida yuzaga keldi. 2007-yilda amerikalik yozuvchi va kinorejissyor Dan Bloom tomonidan “cli-fi” qisqartmasi yaratilgan, bu janr science fiction (ilmiy fantastika)ga o'xshash tarzda iqlim muammolarini badiiy ifodalashga xizmat qiladi [Wikipedia. 2025. “Climate Fiction.” December 9]

Cli-fi insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatni, ekologik falokat va global isish kabi muammolarni o'quvchiga yaqinlashtiradi, shu bilan jamiyatni ekologik ongli qilishga yordam beradi. Cli-fi qat'iy janr emas, balki turli janr elementlarini birlashtiradi: ilmiy fantastika, dystopiya, post-apokaliptik roman, realizm va satira

Ilk namuna sifatida ekologik falokatlar va iqlim o'zgarishini badiiy tarzda aks ettirgan, 1977-yilda yozilgan Arthur Herzogning “Heat” asarini olishimiz mumkin. Asar ilmiy faktlar va badiiy fantastika aralashmasi bo'lib, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ekologik falokatni dramatik va realistik ko'rinishda tasvirlaydi [Bookshop.org. (n.d.). Heat by Arthur Herzog III. Retrieved December 9]. U antropogen iqlim o'zgarishi, aylanma gazlar, global isish, ekologik va ijtimoiy oqibatlar kabi bugungi cli-fi janrining asosiy mavzularini ilgari suradi. Bu 1970 - 1980 – yillarda yozilganiga qaramay, o'zidan keyin yozilgan cli-fi asarlari uchun tayanch vazifasini bajargan.

Yana bir iqlim o'zgarishi va ekologik falokat mavzusi yoritilgan asar Paolo Bacigalupining “The Windup Girl” romanidir. Voqea kelajak Tayland shahrida bo'lib o'tadi, global isish va ekologik inqiroz oqibatlarini tasvirlaydi. Muallif atmosferaning

issiqxonaga o'xshash sharoitda isishi, dengiz sathining ko'tarilishi, qurg'oqchilik va oziq ovqat xavfsizligidagi muammolarni dramatic shaklda korsatadi.

Asardan keltirilgan parchaga e'tiborni qaratsak:

“He had been warned not to eat the fish from the canals. The genetically modified fish might carry a disease, and the city's food supply was never to be trusted [eBook - The Windup Girl by Paolo Bacigalupi · OverDrive: Free ebooks].” (U kanallardan olingan baliqlarni yemang deb ogohlantirilgan edi. Genetik jihatdan o'zgartirilgan baliqlar kasallik tasisi mumkin edi, va shahar oziq-ovqat ta'minotiga hech qachon ishonib bo'lmas edi)

Bu parcha iqlim o'zgarishi va biotexnologik manipulyatsiya natijasidagi ekologik xavfni ko'rsatadi. Bacigalupi shaxsiy hayot va global ekologik inqiroz o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi, qahramonlar o'z navbatida oddiy oziq-ovqat tanlovi orqali ekologik va siyosiy xavflarni his qiladilar.

Cli-fi zamonaviy adabiyotda tobora kengayib borayotgan tematik maydon hisoblanadi. U iqlim o'zgarishini nafaqat ekologik fojia sifatida, balki insoniyatning siyosiy, axloqiy va psixologik masalalari bilan bog'liq hodisa sifatida ko'rsatadi. Distopik, postapokaliptik, realistik va satirik asarlar orqali mualliflar kelajak avlodlar uchun mas'uliyat, ekologik ong va ijtimoiy adolatsizlik mavzularini badiiy tarzda aks ettiradi.

Cli-fi bir necha usullarda yozilgan bo'lishi mumkin, masalan siyosiy va axloqiy muammo sifatida. Masalan Kim Stanley Robinsonning “Science in the Capital” trilogiyasi iqlim o'zgarishini siyosiy va ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqadi; Futuristik distopiya: resurslar tugagan, hukumatlar qulagan dunyo haqida, Margaret Atwoodning “The Year of the Flood” romani resurslar tanqisligi va texnogen falokatlar oqibatlarini aynan distopik tarzda yoritadi; Post-apokaliptik ya'ni falokat sodir bo'lgan dunyo sifatida namoyon qiladi. Masalan Cormac McCarthyning “The Road” romani post-apokaliptik kayfiyatni kuchli psixologik drammatizm bilan ochib beradi. Va nihoyat satirik ya'nikim kinoyali va masxarali uslubda tasvirlangan bo'lishi mumkin. Ian McEwan'ning “Solar” asari iqlim o'zgarishini ilmiy yoki apokaliptik fon sifatida emas, balki inson fe'llari, axloqiy zaiflik, xudbinlik bilan bog'liq masala sifatida kinoyali tarzda talqin qiladi. Bu — cli-fi ning psixologik-ijtimoiy turiga misol bo'la oladi.

Cli-fi janri distopik va post-apokaliptik asarlar orqali ekologik inqirozning turli oqibatlarini yoritadi. Masalan, “Science in the Capital” trilogiyasi iqlim o'zgarishini siyosiy va ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqadi; Margaret Atwoodning “The Year of the Flood” romani resurslar tanqisligi va texnogen falokatlar oqibatlarini distopik

tarzda yoritadi; Cormac McCarthyning “The Road” romani esa post-apokaliptik kayfiyatni kuchli psixologik dramatism bilan ochib beradi. Shu bilan birga, Ian McEwan’ning “Solar” asari iqlim o‘zgarishini satirik ruhda, insonning axloqiy zaifligi bilan bog‘liq holda talqin qiladi.

Cli-fi iqlim o‘zgarishi haqidagi zamonaviy adabiyotning tez rivojlanayotgan va ko‘p qirrali yo‘nalishidir. U an’anaviy janr chegaralaridan chiqib, ilmiy fantastika, distopiya, post-apokaliptik roman, realizm va satira elementlarini birlashtiradi. Cli-fi romanlar iqlim inqirozini nafaqat ekologik fojea sifatida, balki insoniyatning siyosiy, axloqiy va psixologik masalalari bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rsatadi. Margaret Atwood, Kim Stanley Robinson, Paolo Bacigalupi kabi mualliflar yaratgan asarlar insonning kelajak avlodlarga bo‘lgan mas’uliyatini, texnologiya va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatni hamda ijtimoiy adolatsizliklarni yoritadi. Shuningdek, cli-fi global miqyosda kengayapti va u nafaqat iqlim o‘zgarishini tasvirlovchi janr, balki adabiyotning insoniyat va tabiat munosabatini qayta ko‘rib chiqishga undaydigan muhim badiiy va madaniy hodisasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atwood, Margaret. The Year of the Flood. Nan A. Talese / Doubleday, 2009.
2. Bacigalupi, Paolo. The Windup Girl. Night Shade Books, 2009.
3. Bloom, Dan. “Introduction of the Term ‘Cli-fi’.” 2007. Online publication.
4. Herzog, Arthur. Heat. Simon & Schuster, 1977.
5. McEwan, Ian. Solar. Jonathan Cape, 2010.
6. Robinson, Kim Stanley. Science in the Capital Trilogy: Forty Signs of Rain (2004), Fifty Degrees Below (2005), Sixty Days and Counting (2007). Bantam Books.
7. Trexler, Adam. Anthropocene Fictions: The Novel in a Time of Climate Change. U of Virginia P, 2015.